



UMUMIY O'RTA TA'LIMNING BOSHLANĠICH SINIF O'QUVCHILARIGA "TARBIYA" DARSLIKLARINI ÒTILISHIDA ÒZBEK XALQI MA'NAVIY MEROSIDAN FOYDALANISH "

I.M.Rasulova

Shahrisabiz davlat pedagogika instituti pedagogika kafedrasida katta o'qituvchisi

Mustafoqulova Madina Shomurod qizi

Shahrisabiz davlat pedagogika instituti pedagogika yo'nalishi 1-kurs talabasi

ANNOTATSIYA

Umumiy òrta ta'limning boshlanĠich sinif òquvchilariga „ Tarbiya " darsligini òtishda òzbek xalq ma'naviy merosidan foydalanib ularining ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik qarashlarini, tarbiya usullari, insoniy fazilatlar va qadriyatlar, an'analari, ta'lim-tarbiya jarayonlarining xalq og'zaki ijodida, milliy urf-odatlarda, diniy ta'limotlarda ifodalanish masalalarini o'rganish hamda kelajak avlodga uning mazmun-mohiyatini tushuntirishdan iborat .

Kalit sòzlar: òquvchi, òzbek xalqi, milliy merosi, an'analari, tarbiya, boshlanĠich, sinf, urf-odat, an'ana.

ABSTRACT

By using the spiritual heritage of the Uzbek people, in teaching the elementary school students of general secondary education, to teach their spiritual-educational, artistic-aesthetic views, methods of education, human qualities and values, traditions, education - is to study the issues of expression of educational processes in folklore, national traditions, religious teachings and to explain its meaning to the future generation.

Key words: student, Uzbek people, national heritage, traditions, education, beginning, class, tradition, tradition.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Òzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyul Umumiy òrta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma- bosqich amaliyotga joriy etish chora tadbirlari tòĠrisida" 422-sonli qarori qabul qilindi. Umumiy òrta ta'lim muassasalarida boshlanĠich sinfalarda tarbiya darsi:

1-sinfda òquvchi dastlab orzularini aniqlay olishni òrgatilsa,

2-sinfda o'z oldiga maqsad qòya olish kònikmasi shakllantiriladi,



3-sinfda o'quvchi dasturni òzlashtirish natijasida maqsad va orzu-umidlarini amalga oshirishga harakat qilish kònikmasi paydo bòladi,

4-sinfda atrofda bo'layotgan voqe hodisalarga soĝlom munosabat bildira oladi, shaxs sifatida òzini anglaydi va òz xatti-harakatlarini tahlil qiladi.

Boshlang'ich sinflarga tarbiya darslarini òzbek xalqining milliy an'analari, qadriyatlari, ma'naviy merosidan foydalangan xolda òtish kerak. Boshlang'ich sinflarga dastlab salomlashish odobi haqida òrgatish lozim. Salomlashish insonlar orasida mehr-oqibat va do'stlik tuyg'ularini paydo qiladi. Chunki salom berish orqali insonlar bir-birlariga salomatlik va tinchlik tilaydilar. Bu òzbek xalqining milliy an'alaridan hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf òquvchilariga xalqimizning ma'naviyatiga yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bòlgan mehr-oqibat, insoni uluĝlash, tinch va osoyishta hayot, do'stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish, milliy merosimizni asrash kabi qadriyatlar haqida tarbiya darslari orqali ma'lumot berish kerak. Shunda yosh avlod òzligini, òzi tarixini, milliyiligini, ma'naviy merosini anglagan holda ulĝayadi. Dastlab òquvchilarda vatanga bòlgan muhabbatni uyĝotmoq lozim.

Boshlang'ich 1-2 sinf òquvchilari uchun òzbek xalqining ma'naviy merosini tushuntirish bir muncha oson bòlishi uchun ota onalariga oila a'zolarini mehr-oqibatli bòlmoĝi haqidagi ĝoyalarni tushuntirishdan boshlash maqsadga muvofiq. Tarbiya fanini òqitishda òqtuvchi òz ustida ishlashi uchun òzbek xalqining ma'naviy adabiyotlaridan va yangi metodlardan foydalanishi muhim. Masalan, Imom Buxoriy „Sahih hadislar“, Abdulla Avloniy „, Turkiy guliston yoxud axloq“, Alisher Navoiy, Mahmudxo'ja Behbudiy kabi bobolarimizning ilmiy merosidan foydalanish lozim. Tarbiya fanini keng qamrovli fan bòlib uni òqitishda suhbat, tushuntirish, og'zaki hikoyalar, kòrgazmali materiallardan foydalanish kerak. Mashhur pedagog R. Nevalinna bu borada shunday deydi: „, Yaxshi dars berishning usullari juda kòp, yomon dars berishning usullari ham kòp, eng yomini - usul zerikarli dars berishdir“.

- Muhtaram birinchi prezidentimiz I.A.Karimov takidlaganidek "Biz yurtimizda yangi avlod, yangi tafakkur sohiblarini, ertaga o'rnimizga keladigan yoshlarni ma'naviy dunyosini shakllantirishda o'qituvchi mehnatini qanchalik muhim o'rin tutishini yaxshi bilamiz.



Chunki, o'qituvchi nainki sinf xonasiga fayz va ziyo olib kiradigan, balki minglab murg'ak qalblarga ezgulik yog'dusini, hayot maktabini uqtiradigan mo'tabar zotdir" degan edi. Yoshlarga xalqimizga xos bo'lgan axloqiy m e'yorlami o'rgatish va ularga insoniy fazilatlamini shakllantirishda hamda barkamol shaxs tarbiyasi masalalarida o'zbek xalqining ma'naviy merosining barcha manbalaridan, ya'ni xalq og'zaki ijodi janrlarida, diniy ta'limotlarda, buyuk mutafakkirlar ijodida foydalanib boshlan'gich sinflarga tarbiya darslarini olib borish kerak. Tarbiya darslarini boshlan'gich sinf o'quvchilariga dastlab hadislar, ibratli hikoyalar, allomalarning tarbiyaga oid fikrlaridan olib bormoq lozim.

XULOSA

Yakuniy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'limning boshlan'gich sinf o'quvchilarida „Tarbiya " fanini o'tishda o'zbek xalqi ma'naviy merosidan foydalanish o'quvchilarning barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishda o'zlarining burchlarini amalga oshirishni ta'minlaydi. Kelajak yoshlar qo'lida - deb aytilishi bejiz emas, biz ularga to'g'ri yo'l ko'rsatib tarbiyalar ekanmiz ular albatta o'zbek xalqining milliy ma'naviy merosini asrab avaylaydi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-iyuldagi „Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida „Tarbiya " fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora tadbirlari to'g'risida " 422-sonli qarori
2. N.Ismatova va b. Tarbiya 1-sinf uchun darslik. 1-nashr. -T.: Gafur Gulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi-2020
- 3.ИСЛОМ КАРИМОВ „ЮКСАК МАЪНАВИЯТ – ЕНГИЛМАС КУЧ" ISBN 978-9943-04-075-5 Тошкент«Маънавият» 2008
- 4.М.Ж.Муталипова. Xalq pedagogikasi. -T.: «Fan vatexnologiya», 2015